

QONUNCHILIK HUJJATLARI, TOPSHIRIQLAR HAMDA HUKUMAT QARORLARINING IJROSI YUZASIDAN 2026-YIL IYUN OYIDA “O‘ZAGROINSPEKSIYA”DA AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR

“O‘zagroinspeksiya” tomonidan ijro intizomiga rioya qilish bo‘yicha ishlar qonunchilik hujjatlari talablari doirasida davom ettirilmoqda va belgilab berilgan chora-tadbirlarning samaradorlik va natijadorligiga katta e‘tibor berilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yilning 10 fevraldagi **PF-6166**-sonli, 2025-yil 25-iyuldagi **PF-117**-son Farmonlari hamda 31 maydagi **PQ-5132**-sonli qarori talablaridan kelib chiqib, ijro intizomiga rioya qilinishi bo‘yicha **har haftaning dushanba va juma kuni** muhokama qilinib, o‘tkazilayotgan apparat yig‘ilishlari kengaytirilgan yig‘ilish hamda rayyosat yig‘ilish bayonlari rasmiylashtirildi va har bir topshiriq ijrosi ta‘minlanishi nazoratga olinib kelinmoqda.

“**Ijro.gov.uz**” tizimida bajarilishi lozim bo‘lgan topshiriqlar ijrosi yuzasidan tahliliy axborotlar hamda Inspeksiyaga kelib tushgan qonunchilik hujjatlari ijrosini muddatidan oldin ta‘minlash maqsadida har oyda **Kalendar-grafik jadvallari** ishlab chiqilmoqda va shu asosida ishlar kunlik tashkil etilib, natijasi bo‘yicha **Vazirlar Mahkamasiga** axborot kiritilib kelinmoqda.

Tizimda O‘zbekiston Respublikasining **qonunlari**, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **Farmon, qaror, farmoyishlari**, Prezident Administratsiyasi rahbarining **topshiriqlari** hamda Hukumatning **qaror va farmoyishlari** ijrosi qat‘iy nazoratga olingan.

2026-yilning **yanvar-iyun oylarida 68** ta qonunchilik hujjatlari va topshiriqlari bo‘yicha **138** ta topshiriq bandi ijro muddati bo‘yicha nazoratga olinib, amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida tegishli davlat organlari va tashkilotlariga axborotlar kiritilishi hamda to‘liq nazoratdan yechilishi ta‘minlandi (*jadval ilova qilinadi*).

Shu jumladan, joriy yilning **iun oyida** Inspeksiyaga “Ijro.gov.uz” tizimi orqali **1** ta Prezident hujjatlari bo‘yicha kelib tushgan **1** ta topshiriq yuzasidan **nazorat rejalari ishlab chiqildi** va **tegishli ijrochilarga yo‘naltirildi**.

Shu bilan birga, “Ijro.gov.uz” tizimida “O‘zagroinspeksiya” ning ish yurituvida bo‘lgan **iyun oyi** muddatli **21** ta qonunchilik hujjatlari bo‘yicha **32** ta qonunchilik topshiriqlari ijrosi yuzasidan axborotlar tegishli davlat organlariga kiritilib, barcha topshiriqlar belgilangan tartibda nazoratdan yechilishi ta‘minlandi.

2026-yil 29-iyun holatiga “Ijro.gov.uz” tizimi orqali Prezident hujjatlari ijrosi yuzasidan **54** ta hujjat yuzasidan **123** ta topshiriqlari bo‘yicha ishlar davom ettirilmoqda.

Shuningdek, **iyun oyida** Inspeksiyaga “Ijro.gov.uz” tizimi orqali Vazirlar Mahkamasining **5** ta hujjati bo‘yicha kelib tushgan **11** ta

topshiriqlar yuzasidan **nazorat rejalari ishlab chiqildi** va **tegishli ijrochilarga yo'naltirildi**.

Shu bilan birga, "Ijro.gov.uz" tizimida "O'zagroinspeksiya" ning ish yurituvda bo'lgan **iyun oyi** muddatli Vazirlar Mahkamasining **12** ta hujjati yuzasidan **19** ta topshirig'i yuzasidan ishlar tashkil qilinib, belgilangan tartibda nazoratdan yechilishi ta'minlandi.

2026-yil 29-iyun holatiga "Ijro.gov.uz" tizimi orqali Vazirlar Mahkamasining **16** ta hujjat ijrosi yuzasidan **96** ta topshiriq bo'yicha ishlar davom ettirilmoqda.

2026 yil 29-iyun holatiga Prezident Administrasiyasi va Hukumat komissiyasining **hujjatlari bo'yicha muddati o'tgan topshiriqlar mavjud emas**.

Shuningdek, tizimdagi qonunchilik hujjatlari bo'yicha keyingi oyda ham topshiriqlar ijrosini qat'iy ta'minlash maqsadida 2026-yil 25-mayda **iyun oyida "Ijro.gov.uz"** tizimida bajarilishi lozim bo'lgan nazoratdagi topshiriqlarni bajarishning kunlik **"Kalendar-grafik"** va ijrosini samarali tashkil etish bo'yicha **"Yo'il xaritasi"** Vazirlar Mahkamasiga taqdim qilindi.

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiya